



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2024-yil 1-yanvar holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 21 880 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 19 539 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 86,9 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 85,5 foiz) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan


Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2023- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda savdo (56 taga), yashash va ovqatlanish (41 taga) oshganligini ko‘rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 511 ta, xususiy korxonalar soni 863 ta va oilaviy korxonalar soni 428 tani tashkil etadi.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	709	14,4 %	Zarafshon sh.	274	19,4 %
Karmana t.	595	18,2 %	Konimex t.	240	23,7 %
Qiziltepa t.	455	15,6 %	Nurota t.	249	16,0 %
Xatirchi t.	433	16,8 %	Tomdi t.	179	27,1 %
Navbahor t.	415	18,4 %	G‘ozg‘on sh.	102	23,9 %
Uchquduq t.	259	29,7 %			

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar



2024-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yilning mos davriga nisbatan quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: tashish va saqlashda 625 tadan 769 taga (o'sish 144 ta), savdoda 6 627 tadan 8 074 taga (o'sish 1 447 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2 293 tadan 2 471 taga (o'sish 178 ta).

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	4 921	Nurota t.	1 559
Karmana t.	3 270	Konimex t.	1 013
Qiziltepa t.	2 917	Uchquduq t.	872
Xatirchi t.	2 572	Tomdi t.	661
Navbahor t.	2 252	G'ozg'on sh.	427
Zarafshon sh.	1 416		

2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish




Savdo





Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 3 808 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 3 796 ta;
- yirik korxonalar 12 tani tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	662	15,3 %
Karmana t.	578	19,2 %
Qiziltepa t.	447	16,7 %
Xatirchi t.	429	18,8 %
Navbahor t.	412	19,8 %
Zarafshon sh.	270	20,9 %


Uchquduq t.	254	33,7 %
Nurota t.	243	17,7 %
Konimex t.	236	26,8 %
Tomdi t.	176	30,4 %
G'ozg'on sh.	101	25,6 %

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- yanvar holatiga 19 635 taga yetib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,0 foizni tashkil etdi (18 022 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 41,1 foiz, sanoat – 15,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 12,5 foiz, qurilish – 7,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,4 foiz, tashish va saqlash – 3,9 foiz, axborot va aloqa – 1,4 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,5 foiz, boshqa turlari – 10,5 foiz.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	4 317	Nurota t.	1 374
Karmana t.	3 013	Konimex t.	882
Qiziltepa t.	2 679	Uchquduq t.	753
Xatirchi t.	2 279	Tomdi t.	578
Navbahor t.	2 076	G'ozg'on sh.	394
Zarafshon sh.	1 290		

2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Shunda, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan 1 369 tadan 1 424 taga (o'sish 55 taga), yashash va ovqatlanish - 261 tadan 302 taga (o'sish 41 taga), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish - 45 tadan 49 taga (o'sish 4 taga) ko'paydi.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	661	15,4 %	Uchquduq t.	251	33,6 %
Karmana t.	575	19,2 %	Nurota t.	243	17,8 %
Qiziltepa t.	447	16,7 %	Konimex t.	236	27,0 %
Xatirchi t.	428	18,8 %	Tomdi t.	175	30,4 %
Navbahor t.	412	19,9 %	G'ozg'on sh.	100	25,5 %
Zarafshon sh.	268	21,0 %			

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Navoiy shahrida (21,9 foiz), Karmana (15,3 foiz), Qiziltepa (13,7 foiz), Xatirchi (11,6 foiz) va Navbahor (10,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	4 285	Nurota t.	1 369
Karmana t.	2 998	Konimex t.	873
Qiziltepa t.	2 673	Uchquduq t.	748
Xatirchi t.	2 275	Tomdi t.	576
Navbahor t.	2 071	G'ozg'on sh.	392
Zarafshon sh.	1 279		

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar
2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	213
Zarafshon sh.	30
G‘ozg‘on sh.	15
Konimex t.	327
Qiziltepa t.	284
Navbahor t.	319
Karmana t.	366
Nurota t.	369
Tomdi t.	197
Uchquduq t.	58
Xatirchi t.	293



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	648
Zarafshon sh.	232
G'ozg'on sh.	230
Konimex t.	91
Qiziltepa t.	320
Navbahor t.	264
Karmana t.	487
Nurota t.	259
Tomdi t.	82
Uchquduq t.	145
Xatirchi t.	336



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini sonining o'sish sur'ati 86,1 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 14,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 90,3 foizini ishlab chiqarish sanoati (2020 yilning mos davriga nisbatan 91,8 foizni tashkil etdi), 7,2 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 125,1 foizni tashkil etdi), 2,0 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish 157,5 foizni tashkil etdi) va 0,5 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 140,0 foizni tashkil etdi) tashkil etgan.



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	413
Zarafshon sh.	113
G'ozg'on sh.	14
Konimex t.	35
Qiziltepa t.	204
Navbahor t.	135
Karmana t.	231
Nurota t.	97
Tomdi t.	34
Uchquduq t.	31
Xatirchi t.	83



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 54,2 foiz ulushni tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 100,0 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 13,8 foiz ulushni tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 177,8 foizni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 32,0 foiz ulushni tashkil etdi.

192



Fuqarolik
obyektlarini qurish

445

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

753


Bino va
inshootlar qurish



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	1 790
Zarafshon sh.	456
G'ozg'on sh.	79
Konimex t.	227
Qiziltepa t.	1 327
Navbahor t.	1 064
Karmana t.	1 206
Nurota t.	346
Tomdi t.	195
Uchquduq t.	310
Xatirchi t.	1 074



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,8 foizi yoki 8 057 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 72,0 foiz ulushni tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 116,3 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 19,3 foiz ulushni tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 140,7 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,7 foiz ulushni tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan o'sish 134,3 foizni tashkil etdi.

701

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

1 563

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


5 810

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	283
Zarafshon sh.	176
G'ozg'on sh.	5
Konimex t.	41
Qiziltepa t.	165
Navbahor t.	72
Karmana t.	191
Nurota t.	59
Tomdi t.	22
Uchquduq t.	84
Xatirchi t.	157



2024- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 106,5 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'klar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 11,3 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 88,7 foiz ulushini tashkil etdi.

142

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 113


Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	87
Zarafshon sh.	23
G'ozg'on sh.	4
Konimex t.	10
Qiziltepa t.	33
Navbahor t.	17
Karmana t.	48
Nurota t.	10
Tomdi t.	2
Uchquduq t.	10
Xatirchi t.	41



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 14,4 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish 124,2 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 36,8 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish 143,8 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 48,8 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish 159,8 foizni tashkil etdi.



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	144
Zarafshon sh.	38
G'ozg'on sh.	3
Konimex t.	6
Qiziltepa t.	29
Navbahor t.	19
Karmana t.	45
Nurota t.	10
Tomdi t.	9
Uchquduq t.	13
Xatirchi t.	40



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 356 ta yoki 1,6 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

91,6 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish 119,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,4 foizni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 200,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 5,0 foizini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 138,5 foizni tashkil etdi;

18

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

12




326

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	216
Zarafshon sh.	42
G'ozg'on sh.	3
Konimex t.	7
Qiziltepa t.	148
Navbahor t.	58
Karmana t.	185
Nurota t.	14
Tomdi t.	10
Uchquduq t.	16
Xatirchi t.	70



2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,5 foiz ulushini tashkil etdi.

2020- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 123,3 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 131,0 foizni;


pochta va kuryerlik yo'nalishining o'sish sur'ati 100,0 foizni tashkil etdi.



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot
2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.





2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	527	17,6 %	Nurota t.	192	24,6 %
Qiziltepa t.	414	20,4 %	Zarafshon sh.	123	21,4 %
Karmana t.	393	22,1 %	Konimex t.	109	24,2 %
Navbahor t.	236	24,1 %	Tomdi t.	55	19,0 %
Uchquduq t.	232	35,4 %	G'ozg'on sh.	13	14,1 %
Xatirchi t.	217	25,8 %			

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 21 880 ta korxonalar va tashkilotlarining 11 463 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) qo'yidagicha bo'ldi: savdo – 36,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 15,2 foiz, sanoat – 13,9 foiz va qurilish – 9,6 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	2 989	Uchquduq t.	656
Qiziltepa t.	2 032	Zarafshon sh.	574
Karmana t.	1 782	Konimex t.	451
Navbahor t.	978	Tomdi t.	290
Xatirchi t.	840	G'ozg'on sh.	92
Nurota t.	779		


2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.


Hududlar kesimida

Xatirchi t.	165	18,2 %	Navoiy sh.	51	7,7 %
Navbahor t.	132	25,2 %	Karmana t.	40	9,2 %
Zarafshon sh.	125	21,5 %	Nurota t.	16	5,1 %
Tomdi t.	118	49,2 %	Qiziltepa t.	13	3,7 %
Konimex t.	114	43,5 %	Uchquduq t.	9	15,5 %
G'ozg'on sh.	80	30,2 %			

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 4 602 tani tashkil etdi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan ko'payishiga shahar va tumanlar kesimida – G'ozg'on (128,0 foiz), Tomdi (112,1 foiz) shahar va tumani ta'sir ko'rsatmoqda.


Hududlar kesimida

Xatirchi t.	906	Nurota t.	316
Navoiy sh.	665	G'ozg'on sh.	265
Zarafshon sh.	581	Konimex t.	262
Navbahor t.	523	Tomdi t.	240
Karmana t.	435	Uchquduq t.	58
Qiziltepa t.	351		


2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo





Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Hududlar kesimida

Karmana t.	144	18,4 %	Qiziltepa t.	19	6,6 %
Navoiy sh.	84	13,6 %	Uchquduq t.	13	38,2 %
Xatirchi t.	46	9,1 %	Konimex t.	12	7,6 %
Navbahor t.	44	7,7 %	G'ozg'on sh.	8	22,9 %
Nurota t.	33	12,9 %	Tomdi t.	3	7,0 %
Zarafshon sh.	22	16,9 %			

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra 2019- yilning mos davriga nisbatan 485 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida


Karmana t.	784	Konimex t.	157
Navoiy sh.	618	Zarafshon.	130
Navbahor t.	568	Tomdi t.	43
Xatirchi t.	506	Uchquduq t.	34
Qiziltepa t.	288	G'ozg'on sh.	35
Nurota t.	255		

Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot





2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	17	25,8 %	Xatirchi t.	2	16,7 %
Karmana t.	7	11,9 %	G‘ozg‘on sh.	2	40,0 %
Nurota t.	4	33,3 %	Navbahor t.	2	22,2 %
Konimex t.	4	33,3 %	Zarafshon sh.	2	13,3 %
			Uchquduq t.	1	20,0 %

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2.0 barabarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 45 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu respublikada chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 20,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 14,9 foiz), Eron Islom (8,8 foiz), Turkiya (ulushi 8,4 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 6,5 foiz) va Qozog'iston (ulushi 4,7 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	66	Xatirchi t.	12
Karmana t.	59	Navbahor t.	9
Zarafshon sh.	15	Tomdi t.	8
Qiziltepa t.	12	Uchquduq t.	5
Nurota t.	12	G'ozg'on sh.	5
Konimex t.	12		

2023- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, birlikda

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 98 tasi qo'shma korxonalar, 117 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar

30	Navoiy shahri	36
10	Zarafshon shahri	5
2	G'ozg'on shahri	3
7	Konimex tumani	5
6	Qiziltepa tumani	6
5	Navbahor tumani	4
37	Karmana tumani	22
7	Nurota tumani	5
2	Tomdi tumani	6
3	Uchquduq tumani	2
8	Xatirchi tumani	4

2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish
va tizimli xizmat
koʻrsatish boʻlimi
Tel.: 79.223.42.67